

MILLIY SPORT TURLARI VA ULARNING RIVOJI

Ergashaliyeva Shirinxon Soyibjon qizi

02.01.2005 yil tug'ilgan

FarDU jismoniy madaniyat fakulteti

jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-kurs 23.45 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy sport turlarining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi. O'zbek xalqining madaniy merosi bo'lgan kurash, uloq-ko'pkari, o'q otish, belbog'li kurash va boshqa milliy sport turlarining tarixi, ularning yoshlar tarbiyasidagi roli hamda xalqaro miqyosda tan olinishi haqida so'z boradi. Shuningdek, milliy sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham tahlil qilinadi. Maqola milliy qadriyatlarni sport orqali asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish muhimligini ko'rsatib beradi.

Annotation

This article will cover the origin of National Sports, stages of development and their importance today. The history of the cultural heritage of the Uzbek people, the history of wrestling, Capricorn, archery, belt wrestling and other national sports, their role in youth education and international recognition is discussed. Measures to further develop and popularize national sports are also analyzed. The article shows the importance of preserving national values through sports and bringing them to the future generation.

Аннотация

Переводчикэта статья расскажет о происхождении, этапах развития национальных видов спорта и их значении сегодня. Рассказывается об истории борьбы, Козерога, стрельбы из лука, борьбы на поясах и других национальных видов спорта, являющихся культурным наследием узбекского народа, их роли в воспитании молодежи, а также о международном признании. Также будут проанализированы реализуемые меры по дальнейшему развитию и популяризации национальных видов спорта. В статье подчеркивается важность сохранения и передачи национальных ценностей будущему поколению посредством спорта.

Har bir millatning ma'daniyati va an'analarini ifodalab beruvchi muhim omillardan biri bu- sport hisoblanadi. O'zbekiston o'zining boy sport meroslari bilan ajralib turadi. Milliy sport turlari o'sha xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi va tarixiy an'analariga asoslangan bo'lib, ular jismoniy faollikni oshiradi va shu bilan birga

ma'naviyat va tarbiyada ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda qadimdan rivojlangan milliy sport turlari quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

- Kurash – eng qadimiy va mashhur milliy sport turi bo'lib, musobaqalar odob-axloq qoidalariga asoslangan holda o'tkaziladi. 1999-yilda "O'zbekiston kurash federatsiyasi" tomonidan xalqaro miqyosda tan olingan.
- Belbog'li kurash – turli hududlarda keng tarqalgan bo'lib, unda sportchilar belbog' yordamida bir-birini yiqitishga harakat qilishadi.
- Uloq-ko'pkari – O'zbek va boshqa Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo'lgan o'yinda chavandozlar o'z jamoasi bilan uloqni (echki terisidan tayyorlangan to'pni) belgilangan joyga eltish uchun kurash olib boradi.
- O'q otish – tarixan harbiy san'atning bir qismi bo'lib, bugungi kunda sport turlaridan biri sifatida rivojlanmoqda va bu bo'yicha ko'plab musobaqalar o'tkazilmoqda.
- Kamondan otish – O'zbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda sport sifatida qayta tiklanmoqda.
- Qilichbozlik – qadimda harbiy sport turi bo'lsa, bugungi kunda sport musobaqalarining ajralmas qismiga aylangan.
- Bayga ya'ni ot poygasi – chavandozlik san'ati qadimdan rivojlangan bo'lib, hozirda ham sport musobaqalarida keng qo'llaniladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy sport turlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Milliy sport bo'yicha huquqiy asoslar yaratildi: – "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun va bundan tashqari sportni rivojlantirishga oid Prezident farmonlari va qarorlar qabul qilindi. 1998-yilda Toshkentda "O'zbekiston kurash federatsiya"si tashkil etildi va keyinchalik xalqaro federatsiya maqomini oldi. Hozirda kurash bo'yicha jahon chempionatlari muntazam o'tkazilmoqda. O'zbekistonning turli hududlarida milliy sport turlariga ixtisoslashgan sport maktablari va federatsiyalar faoliyat yuritmoqda. Xalqaro olimpiya qo'mitasi va turli sport tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, milliy sport turlari jahon arenalarida tan olinmoqda. Har yili o'zbek kurashi va boshqa milliy sport turlari bo'yicha mahalliy va xalqaro musobaqalar o'tkazilib, yoshlarning ushbu sport turlariga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda.

Milliy sport turlari yoshlarning jismoniy sog'lom bo'lishi bilan birga, ularning ma'naviy kamol topishiga ham xizmat qiladi. Jismoniy sog'lomlikni oshiradi – yosh avlod sport orqali chiniqadi va sog'lom turmush tarzini shakllantiradi. Vatanparvarlik va milliy g'ururni oshiradi – sport orqali milliy qadriyatlar yosh avlodga yetkaziladi. Intizom va irodani tarbiyalaydi – sport bilan shug'ullangan yoshlar mehnatsevarlik, halollik va matonat kabi fazilatlarni o'zida shakllantiradi.

Milliy sport turlari O'zbekistonning madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, ular nafaqat sport, balki tarbiya vositasi ham hisoblanadi. Mustaqillikdan keyin bu

sohada keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, milliy sport turlari xalqaro miqyosda ham tan olinmoqda. Kelajakda milliy sport turlarini yanada rivojlantirish, ularni ommalashtirish va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Sport va jismoniy tarbiya davlat qo'mitasi. O'zbekiston milliy sport turlari tarixi va rivojlanishi. Toshkent, 2020.
2. Orifjonov A. Milliy sport turlari va ularning ahamiyati. Toshkent: Fan, 2018.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Qodirov N. O'zbek kurashi: tarixi va rivojlanish yo'llari. Toshkent: Sharq, 2015.
5. Xodjayev S. O'zbekiston milliy sport turlarining xalqaro maydondagi o'rni. "Sport va innovatsiya" jurnali, 2021.
6. Mamatov D. Kurash sportining yosh avlod tarbiyasidagi roli. Toshkent davlat jismoniy tarbiya instituti ilmiy jurnali, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida. 2019-yil, 5-mart.
8. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil.
9. O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi rasmiy sayti – www.olympic.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi – www.minsport.uz